

**XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORGARLIGI VA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR**

**Matkarimova Ashurxon Ismoilovna**

*“University of economics and pedagogy” dotsenti*

O'zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxsni har tomonlama kamol toptirish va yetuk mutaxassis tayyorlash uchun ta’lim usullarini takomillashtirish, zamonaviy o’qitish texnologiyalari va xorijdagi ta’lim tizimida qo’llanilayotgan tajribadan maqsadli foydalanish masalalari ham ta’kidlangan.

Hozirgi paytda ijtimoiy hayotda kechayotgan ijobiy o’zgarishlar xorijiy til mutaxassisligi bo’yicha kadrlar tayyorlashga nisbatan yangicha talablar qo’yilmoqda va bu talablar xorijiy til o’qituvchilari tayyorlashda zamon ruhiga mos talablar hisoblanib, ulardan biri xorijiy til o’qituvchisining kasbiy tayyorgarligi masalasidir. O’qituvchining kasbiy tayyorgarligiga uning lingvistik, pedagogik va metodologik tayyorgarligini kiritish mumkin.

Xorijiy til o’qituvchisining lingvistik tayyorgarligi deganda, uning o’rganilayotgan xorijiy tilning qurilishi xususidagi bilimlari va ushbu til hodisalarini kommunikativ muloqot jarayonida nutqiy faoliyat turlariga mos holda qo’llay bilish ko’nikma va malakalari tushuniladi. Boshqacha aytganda, xorijiy til o’qituvchisi shu xorijiy tilda erkin muloqotni amalga oshira olishi: gapirishi, tinglab-tushunishi, o’qiy olishi va yoza olishi nazarda tutiladi.

Uning pedagogik tayyorgarligi - xorijiy til o’qituvchisining shu xorijiy til materiali asosida tarbiyaviy hal qila olish malakalariga ega bo’lishni talab qiladi. U til o’rganuvchilarning xususiyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda o’quv jarayonini tashkil qila bilishi kerak.

So’nggi yillarda ta’lim tizimiga kirib kelgan pedagogik tushunchalar, innovatsiyalar, interfaol metodlar va ular bilan bog’liq yangi tushunchalarni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi tomonidan tushunib, o’zlashtirib olinishi ularni amaliyotda qo’llanilish samaradorligini oshiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish vatanimizning kelgusi taraqqiyotini belgilab beruvchi omil ekanligi xususida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni aytgan edi:

“Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim darajalarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq. Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz-murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko’rishimiz zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim-

tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lish lozim, deb qabul qilishimiz kerak". (I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008,61-bet).

Shuning uchun ham zamonaviy ta'limda innovasion texnologiyalar va interfaol metodlardan shaxsni faollashtirish uchun zarur bo'lgan nutqiy vaziyatlarni hosil qilishda foydalanish va o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar shaxsning ichki imkoniyatlari, qiziqish, istak-xohish va qobiliyatini hisobga olgan holda uni ta'lim jarayonida faollashtirishni nazarda tutadi.

"Interfaol metod" atamasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib, u talabalarning ichki faolligini oshirish va bilimlarni faol o'zlashtirishni taqozo etadi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi esa ta'lim- tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv asosida kirib keldi. Aslida, "texnologiya" so'zi texnikaviy tarakkiyot tufayli yuzaga kelgan, U yunoncha "texnos" so'zidan olingan bo'lib, "san'at", "marxamat" ma'nolarini anglatadi, "logos" so'zi esa fan, ta'limot ma'nolarini bildiradi.

Garchan, "pedagogik texnologiya" tushunchasining kelib chiqishida texnik vositalarning ta'limda qo'llanila boshlashi ma'lum darajada ijobiy rol o'ynagan bo'lsada, uni ishlab chiqarishdagi "texnik jarayon" bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shuningdek, o'quv jarayonida turli texnik vositalarning qo'llanilishini ham "texnologiya" tushunchasi bilan bir xil talqin qilish to'g'ri emas.

Aslida "texnologiya tushunchasi" ta'lim sohasiga ishlab chiqarishdan kirib kelgan bo'lib, u oldindan puxta loyihalashtirish va shu asosda, ma'lum ketma-ketlikda mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish orqali kafolatlangan natijaga erishishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda matbuotda, pedagogik va metodikaga oid adabiyotlarda texnologiya so'zi bilan bog'liq xilma-xil atamalarni uchratish mumkin. Bularga misol qilib, "pedagogik texnologiya", "zamonaviy texnologiya", "texnik texnologiya", "axborot texnologiyalari", "o'qitish texnologiyasi", "gumanitar texnologiya", "didaktik texnologiya", "tarbiya texnologiyasi" va hokazolarni keltirish mumkin.

Hozirda insoniyat o'qib-o'rganish mumkin bo'lgan axborotlar shunchalik ko'pki, ular axborotlar ummonini tashkil qilgani holda ularni saqlash, kerakli paytda, qisqa vaqt ichida zarur axborotni topish muammosi axborotlar texnologiyasini kelib chiqishga va alohida fan sifatida rivojlanishiga olib keldi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganish, uni qaysi yo'ldan borishini, ya'ni taraqqiyot yo'lini aniqlashga oid muammolarni yechishda aniq maqsad, tizimli yondashuv va kafolatlangan natijaga erishish yo'llari ko'prok ijtimoiy texnologiya bilan bog'liq. Uning ikki tarkibiy qismi bo'lishi iqtisodiy texnologiya va siyosiy texnologiyani ham keltirib o'tish mumkin.

Ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan texnik texnologiya, asosan, mahsulot ishlab chiqarishdagi tizimli yondashuv orqali kafolatlangan natijaga erishishni taqozo



etadi. Pedagogik texnologiya ta'limiga ishlab chiqarishdan kirib kelganligi sababli bu haqda bir oz kengroq to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Texnik texnologiya xususida so'z yuritganda, undagi uch sifatga alohida e'tibor qaratmoq kerak. Bularga oldindan puxta loyihalashtirish, tizimli yondashuv va kafolatlangan natijani kiritish mumkin.

Ma'lumki, ishlab chiqarishda "texnologik jarayon", "gexnologik operatsiya", "texnologik xarita", "texnologik rejim" atamaları keng qo'llaniladi. Bu yerda texnologik jarayon mahsulot ishlab chiqarish paytida bajariladigan operatsiyalar (xarakatlar)ning birligidan, texnologik operatsiya esa ishchi tomonidan bajariladigan harakatlar majmuidan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha operatsiyalarning aniqligi va ketma-ketligini belgilab beruvchi hujjat texnologik xaritada o'z aksini topgan. Texnologik rejim deganda texnologik operatsiyalarni amalga oshirish vaqtini, shartini va tartibini belgilab berilganligi tushuniladi.

Ta'limdagi innovasion texnologiyalar haqida so'z yuritganda, pedagogik texnologiya bilan didaktik texnologiyani farqlay bilish maqsadga muvofiq.

Hozirda pedagogik va metodik adabiyotlarda keng qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiya" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u tarbiyaviy jarayon va ta'lim jarayoni bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun xam pedagogik texnologiyaga berilgan ta'rifda turlicha qarashlarni ko'rishimiz mumkin. V.P.Bespalkoning fikricha, pedagogik texnologiya o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lgan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir.


M.V.Klarin fikricha, oldinga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini loyihalashtirishdir. V.M.Monaxov esa pedagogik texnologiya - bu oldindan rejalashtirilgan natijaga olib boruvchi tizimli yondashuv degan fikrni bildiradi. I.Ya.Lernerning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali anglab olinadigan maqsadni ifodalaydi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar ham bu borada o'z fikrlarini bildirganlar. Taniqli pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyani tanlash jarayonidagi yangicha yondashuv deb hisoblagan holda unga "ijtimoiy muxandislik ongi" ifodasi sifatida qaraydi.

N.Saidahmedov va A.Ochilovlar pedagogik texnologiyani o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish va tarbiya vositalari yordamida "shaxsda oldindan belgilangan sifatlarni shakllanpshrshi" jarayoni sifatida talqin qiladilar. Ushbu yuqorida qayd etilgan olimlarning fikrlarini o'rganib tahlil qilish asosida yana bir o'zbek olimi B.Ziyomammedov pedagogik texnologiyani jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda "shaxsning sifatlarini" aniq maqsad asosida shakllantiradigan va o'quv jarayonini majmui sifatida texnologiyalashgan ta'limiy tadbir deb qaraydi.

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda texnologik yondashuv va texnologik atamalar, ularning ma‘nosi, mohiyati, funksiyasi bilan bog‘liq muammolar kelib chiqmokda. Shuning uchun ham avvalo yuqorida qayd etilgan atamalardan foydalanishdan oldin texnologik jarayonning mohiyati va texnologiya turlarining tasnifini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, texnologik jarayon bilan bog‘liq texnologiya turlarining quyidagi tasnifini keltirish mumkin.



Ushbu tasnifda keltirilgan texnologiya turlarining har biri o‘ziga xos qonuniyatlar va funksiyalarga ega bo‘lganligi uchun ham biz ko‘proq ta‘lim texnologiyasi haqida fikr yuritishni maqsadga muvofiq topgan holda texnologiyaning boshqa turlari haqida qisqacha ma‘lumot berish bilan cheklandik.



Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiyalar" aslida shaxsni shakllantiruvchi, uning xarakteri, qobiliyati, qiziqishlari bilan bog'liq sifatlarni rivojlantiruvchi texnologiyani va shu bilan bir qatorda o'qitish, bilim berish, o'rgatishga yo'naltirilgan texnologiyalarni, ya'ni boshqacha qilib aytganda pedagogik va didaktik texnologiyalarni o'z ichiga olgan holda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ta'limdagi texnologik jarayonga xos sifatlarni keltirib o'tish ham joiz. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: avvaldan puxta loyihalashtirish, motivatsiya hosil qilish, tizimli yondashuv va kafolatlangan natija.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. - Тошкент: ТДПУ, 2003. -174 бет
2. Фарберман Б.Л. Илфур педагогик технологиялар. - Тошкент: Фан, 2000. - 130 бет
3. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике. - М., 1994
4. Алимов Ш.С. Замонавий инновацион технологиялар. - Андижон, 2011
5. Matkarimova A.I. (2024). Nominative sentences in linguistics. Scientific approach to the modern education system, 2 (21), 39-41.